


**“YoShLAR OVOZI” HUDUDLARDA**

Ayni kunda Respublikamiz hududida Ӯzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari Agentligi tashabbusi bilan yoshlarni musiqa san'atiga jalb etish va yangi iste'dodlarni ro'yobga chiqarish maqsadida “Yoshlar ovozi” tanlovi o'tkazilmoqda.

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Muhib Azamjonov sa'y-harakati bilan tashkil etgan tadbirda 29-sonli UO'T maktabining o'quvchilari – 10 va 15-yoshdagi o'quvchilar o'rtasida o'tkazildi.

Ishtirokchilar baxshichilik, an'anaviy ijro (maqom, katta asho'la, suvoraxonlik), opera va estrada yo'nalishlarida kuch sinashdi.

Natijada yosh o'quvchilar – Madinaxon Hokimdjonova  birinchi, Shahriyor G'iyosov ikinchi va Parvinjon Qoriyev uchinchi o'rinni egallab, tashkilotchilar tomonidan tashkil etilgan sovg'alarni olishga muvaffaq bo'lishdi.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**
2022-04-04 16:39:44